

PSIXOLOGIK XIZMAT ORQALI O'QUV FAOLLIGIGA MUNOSABAT TIZIMINING SHAKLLANISHI

Ochilova Komila Jamolovna
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada o'smir yoshdagi o'quvchilar o'quv jarayoning psixologik tahlilga bog'ishlangan kuzatishlar orqali o'quvchilarning o'quv tarbiyaviy faoliyatlarini tashkil etishda va boshqarishda bugungi kunda psixologik xizmat tizimi hal qilishi va bartaraf etishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud ekanligi batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, faol-ijobiy, ijobiy, indifferent, kognitiv, hissiy-irodaviy, baholash komponenti, adekvat baholash.

Аннотация: В статье подробно описано, что существует ряд проблем, которые должна решить и устранить сегодня система психологической службы в организации и управлении воспитательной деятельностью школьников посредством наблюдений, посвященных психологическому анализу воспитательного процесса школьников-подростков.

Ключевые слова: мотивация, активно-положительная, положительная, индифферентная, познавательная, эмоционально-волевая, оценочный компонент, адекватная оценка.

Abstrakt: The article describes in detail that there are a number of problems that the system of psychological service should solve and eliminate today in the organization and management of the educational activities of schoolchildren through observations on the psychological analysis of the educational process of adolescent schoolchildren.

Key words: motivation, active-positive, positive, indifferent, cognitive, emotional-volitional, evaluative component, adequate assessment.

O'quvchi shaxsini ongli ravishda o'quv faoliyatiga yo'llashda birlamchi omil - bu shaxsning ichki imkoniyatlari, qiziqishlari, iqtidori hamda ehtiyojlari hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan o'quv jarayonini tashkil etishda sub'ektning (o'quvchining) ichki pozitsiyasini (motivatsiyasini) va unga ta'sir etib turuvchi tashqi muhit bilan mutanosiblik jihatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, o'quvchi o'quv-faolligiga yo'naltirish jarayonining obekti bo'lsa-da, umumiy o'zlikni anglash, ongli munosabat jarayonining sub'ekti hisoblanadi. Qolaversa, bugungi ilmiy matbuotdagi ma'lum nazariy va empirik ma'lumotlar tahlili Shuni tasdiqlaydiki, o'quvchi shaxsi o'quv faoliyati jarayonida ham obekt, ham sub'ekt sifatida ishtirok etadi. Uning bu ishtiroki markazida esa to'liq ma'noda munosabat motivatsiyasi tizimi shakllanishining o'ziga xos ijtimoiy psixologik xususiyatlari yotadiki, bu xususiyatlar ko'lamini nazariy va empirik jihatdan tahlil qilish hamda shu asosda tegishli ijtimoiy psixologik tavsiyalarni ishlab chiqish masalasiga jiddiy e'tiborni qaratish psixologik xizmatni asosiy maqsadini tashkil etadi.

Bu borada Sharq allomalarining va ilg'or psixologiya fani vakillarining juda ko'plab ilmiy fikr-mulohazalari bayon etilgan. E'tirof etish kerakki, motivatsiyaning tarixi, buguni va kelajagi haqida qator nazariy mulohazalar va mushohadalar asosli ravishda bayon etiladi. Ayniqsa, bu borada O'zbekistondagi olimlar tomonidan ham bugungi kunda olib borilayotgan psixologik tadqiqotlar ko'lamiga va taraqqiyotiga alohida urg'u berish mumkin. Albatta, o'quv faolligi masalasi keng qamrovli jarayon bo'lganligi uchun uning juda ko'p qirralari tadqiqotlar orqali ochib beriladi. Aytish mumkinki, bu borada juda ko'plab psixologlar, pedagoglar, faylasuflar, sotsiologlar va boshqa soha vakillari tomonidan tahsinga sazovor ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Lekin, shunday bo'lsa-da, aynan o'quv faolligiga munosabat tizimining shakllanishi, uning o'ziga xos ijtimoiy psixologik iyerarxiyasi va motivatsiyasi shakllanishining bugungi yutuqlarimizga mos qirralari haqida batafsilroq tadqiqotlar olib borilishiga bo'lgan ehtiyojining tobora ortib borayotganligini ham sezmaslik mumkin emas. Chunki, o'quvchi shaxsining o'quv jarayoniga bo'lgan real ichki (pozitiv), munosabat motivatsiyasi imkoniyatlarini chuqur o'rganmay, yoxud, tahlil qilmay turib, shaxs taraqqiyoti mushtarakligini va uning ijtimoiy maqsadlar mutanosibligiga mos tarbiya yo'nalishlarini belgilab bo'lmaydi. Munosabat motivatsiyasi tushunchasini asoslashga qaratilgan nazariy-ilmiy tadqiqotlar olib borish juda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Qolaversa, bu muammoning tahlil qilinishi o'quv faolligiga munosabat motivatsiyasi bilan bog'liq nazariy tushunchalarga ma'lum darajada

bo'lsa-da, oydinlik kiritishi mumkin, deb o'ylaymiz. Zero, o'quv jarayoni va unga munosabat bir-biridan ajralgan, alohida narsa emas, balki, ular bir-birini to'ldirib turuvchi hamda yagona maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy psixologik jarayon hamdir.

O'quvchi shaxsining o'quv faolligiga munosabatini tadqiq qilish uslubi haqida amaliy qo'llanmalarining yetarli emasligi bois bugungi kunda o'quvchilarning o'quv faolligiga nisbatan ichki motivatsiyasiga tegishli tartibda baho berish masalasida bir oz qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Ushbu qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o'quv faolligiga munosabat tizimini o'rganish mezonlari va uslubini ishlab chiqish vazifasiga ahamiyat qaratish lozim.

Bunda faoliyat va faollik psixologiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati haqidagi nazariy-ilmiy tahlillar, xulosalar xususidagi fikr-mulohazalar faoliyatga munosabatni yuqori darajada tarkib toptirishining munosabat motivatsiyasi samaradorligi uchun muhim mezon sifatida qabul qilish imkonini beruvchi jihatlar belgilab olinishi lozim. Chunki, faoliyatga berilgan ta'rifning (ya'ni, faoliyat – kishining anglashilgan maqsad bilan boshqarib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir) o'ziyoq insonning u yoki bu darajdagi munosabatlari majmuasini ifodalab turibdi. Demak, shunga muvofiq, faoliyatga nisbatan munosabatning uch darajasini (faol-ijobiy, ijobiy, indifferent) shartli ravishda belgilash mumkin.

Munosabat tizimini mazkur turlariga bo'lishdan maqsad, faoliyatga nisbatan ijtimoiy faollikni munosabat tarzida ifoda etuvchi ayrim ijtimoiy psixologik jihatlarni yanada chuqurroq tasavvur va talqin etishdir.

Bundan tashqari, o'quv faolligiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi yo'nalish tanlab olindi va shu yo'nalishlar tadqiqot umumiy maqsadiga singdirildi: birinchi yo'nalishda maktabga munosabat motivatsiyasini o'rganish, ikkinchi yo'nalishda o'quv komponentlarini shakllanganlik darajalarini o'rganish, uchinchi yo'nalishda esa shaxs yo'nalganligini o'rganish orqali o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilishga qaratilgan usullar majmuasi tanlab olinishi va uni amaliyotga tatbiq etish zarur.

Munosabat tizimi shkalasida o'quvchilar faoliyatida shakllanayotgan o'quv faolligini tanlash jarayoniga bo'lgan «faol-ijobiy», «ijobiy», «indifferent» munosabatlar motivatsiyasining o'smir yoshidagi o'quvchilar xarakteriga mos o'rtacha umumiy, qiyosiy-tipik ko'rsatkichlari ko'lami kiritiladi va bu esa tadqiqot maqsadiga mos ijtimoiy psixologik mezonlarni tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Olib borilgan ilmiy mushohadalar asosida quyidagi umumiy va amaliy vazifalarni belgilashni lozim topdik:

1. O'smir yoshlari o'quvchilar uchun xarakterli bo'lgan munosabat motivatsiyasi va uning o'ziga xos dinamik xususiyatlarini ijtimoiy-psixologik muammo sifatida tadqiq qilish. Dastlabki mazkur vazifaning qo'yilishi munosabat motivatsiyasi tushunchasiga boshqa talqinlardan farqli o'laroq aynan ijtimoiy psixologiya fani obekti sifatida qarab munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari dinamikasiga empirik baho berish bilan bog'liq mulohazalarga jiddiy e'tibor qaratishni zarur deb hisobladik.

2. Munosabat motivatsiyasi va uni ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq qilish uslubini ishlab chiqish. Bunda munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlarini aniqlashga xizmat qiluvchi uslubiy majmua yaratish masalasi qo'yiladi. Chunki, ilmiy matbuotda ma'lum fundamental ma'lumotlarga asoslangan usullarni aniqlamay turib tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarib bo'lmaydi. Mazkur vazifani bajrish uchun bir-birini to'ldirib, mantiqiy bog'lab turuvchi usullar tanlanishi lozim.

3. Munosabat motivatsiyasiga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash. Bu masalaning qo'yilishi orqali bevosita munosabat motivatsiyasining shakllanishi bilan bog'liq omillar tizimiga baho berish mumkin bo'ladi.

4. O'smir yoshdagi o'quvchilar misolida munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlariga baho berish va qo'lga kiritilgan empirik ma'lumotlar asosida tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish zaruriyatiga ahamiyat qaratish.

Tadqiqot usullarini tanlashda munosabat tizimini ma'lum ijtimoiy psixologik talablar asosida tadqiq qilish uchun ilg'or psixologiya fani vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilayotgan mezonlar tanlab olish va ulardan o'rni bilan foydalanish zarur.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi yo'nalish tanlab olindi va shu yo'nalishlar bo'yicha aniq yo'naltirilgan usullar majmuasi ishlab chiqildi. Jumladan, birinchi yo'nalishda maktabga va o'quv faoliyatiga umumiy munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish usullari, ikkinchi yo'nalishda o'quv faoliyati

komponentlari asosidagi munosabat motivatsiyasini o'rganish usullari, uchinchi yo'nalishda shaxs yo'nalganligini o'rganish orqali o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilish usullari; to'rtinchi yo'nalishda qadriyatlar orqali o'quv faolligiga munosabat motivatsiyasini tadqiq qilishga qaratilgan usullar majmuasi tanlab olinishi maqsadga muvofiq.

Birinchi yo'nalishga kiruvchi usullar majmuasi "maktabga munosabat motivatsiyasi" deb nomlanadi. Chunki, har bir o'quvchining o'quv topshiriqlarini bajarishga bo'lgan xayrixoxligi eng avvalo, maktabga undagi ta'lim-tarbiya jarayoniga ijobiy yoki indifferent munosabatlari asosida ko'riladi. Chunki, o'quvchi shaxsidagi maktab ta'limiga umumiy munosabatlar tizimining baholanishi orqali har bir o'quvchi bilan o'quv faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasini ishlab chiqish mumkin. Shu nuqtai nazardan dastlabki usullar majmuasiga N.G.Luskanova tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan "Maktabga munosabat motivatsiyasini baholash" metodikasini (manba: Лусканова Н.Г. Методы исследования детей с трудностями в обучении. – М., 1993; 2. Психодиагностические методы изучения личности. Под.ред. Ратанова Т.А., – М.: Московский психолого-социальный институт: Флинта, 1998-264 с. 60-64 стр.) o'smir yoshdagi o'quvchilarning maktab ta'limiga, o'quv jarayoniga umumiy-hissiy munosabatlar darajasini aniqlash uchun asos qilib oldik. Albatta, bu metodikaga qo'shimcha ravishda individual suhbatlar, anketa savollariga javoblar, maxsus kuzatuvlar hamda kontent tahlillar natijalaridan ham o'rni bilan foydalanish mumkin.

Usulni qo'llash tartibi. Usul 10 ta vaziyatni o'z ichiga olgan va maxsus yo'naltirilgan anketa savollaridan iborat bo'lib, har bir savolning javobi shartli ravishda qabul qilingan ma'lum ma'nodagi munosabat motivatsiyasi darajalarini belgilashga xizmat qiladi. Shuning uchun dastavval anketa savollari tuzilib respondentlarga tarqatiladi. Tarqatilgan anketa savollarining har birida 3 tadan javob varianti mavjud bo'lib respondentdan shu variantlarning o'ziga nisbatan yaqinroq bo'lganini belgilash so'raladi. Belgilab bo'lingan anketa javoblarining haqqoniyligini bilish uchun eksperimentator savollar va ularning mazmunini yana bir bor takrorlash bilan birga har bir respondent bilan tanlangan javob yo'nalishi doirasida individual suhbat natijalarini ham qayd etib boradi. Barchasi tugagach, eksperimentator to'ldirilgan anketalarni terib oladi va ma'lumotlarni qayta ishlashga kirishadi.

Avvalo shuni aytish kerakki, mazkur usullar majmuasi o'quvchi shaxsi faoliyatidagi o'quv komponentlarining qay darajada tarkib topayotganligini aniqlashga xizmat qiladi. Chunki, har qanday faollik zamirida ma'lum omillar yotadi. Bizning nazdimizda esa, o'quv faolligi yoki o'quv faolligini namoyon qilishga bo'lgan munosabat motivatsiyasi zamirida o'quv komponentlarining (kognitiv, hissiy-irodaviy, baholash) ishtiroki muhim o'rin tutadi. Ya'ni, tegishli darajadagi o'quv komponentini shakllantirish orqali o'quv faolligi haqida gapirish mumkin. Qolaversa, o'quvchi har qanday o'quv topshirig'ini bajarish jarayonida faol ishtirokchi bo'lishi uchun, dastavval undagi bilimlar, hissiy-irodaviy sifatlar, o'z-o'zini adekvat baholashga va rivojlantira borishga bo'lgan qat'iy harakatlar motivatsiyasi shakllangan bo'lishi darkor. Aks holda, undagi faollik shunchaki oddiy harakat sifatida baholanadi. Shularni hisobga olib o'smir yoshdagi o'quvchilarda o'quv faolligini namoyon qila olishga xizmat qiluvchi munosabat motivatsiyasi zamiridagi o'quv komponentlarining shakllanganlik darajalarini aniqlash darkor.

O'quvchilarda o'quv faolligiga nisbatan faol ijobiy munosabatni ta'minlashga xizmat qiluvchi o'quv komponentlarini aniqlash zarur. Chunki, har bir komponentning u yoki bu darajadagi miqdoriga qarab o'quv faolligiga nisbatan munosabat motivatsiyasi ko'rsatkichlari (yuqori, o'rta, quyi) haqida tegishli mulohazalarni yuritish mumkin. Jumladan, kognitiv komponent ishtiroki, aksariyat hollarda o'quvchi faoliyatidagi tegishli bilimlarni egallash asosida tarkib topgan qiziqishlarning mavjudligi, har bir o'quv topshirig'ini chuqurroq idrok va tafakkur qilish orqali bajarishga intiluvchanlikning namoyon etilishi orqali belgilanadi.

Hissiy-irodaviy komponent ishtirokida esa har qanday o'quv topshirig'ini alohida ishtiyoq bilan bajarish va bu jarayonda barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishga intilish, qat'iylik, tashabbuskorlik va o'ziga xos irodaviy sifatlarni namoyon qilish, mas'uliyatni chuqur his etgan holda faoliyat ko'rsatish kabilar kiradi.

Baholash komponentining mavjudligi esa, o'quvchi shaxsidagi o'z-o'zini adekvat baholash, o'z-o'zini idora qilish, rivojlantirish, o'z imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish, faoliyat va uning natijalariga adekvat baho berish kabi sifatlar orqali yaqqol ifodalanishi mumkin.

Demak, har bir respondent o'quv faoliyatidagi komponentlar ishtirokining qay darajada (yuqori, o'rta, quyi) tarkib topayotganligini tahlil qilish va shu asosda tegishli xulosalar chiqarish kabi holatlar usulning asosiy maqsad-mohiyatini anglatadi.